

Date: 13th August-2026

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISLOHOTLARNING YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOT STRATEGIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Ismatullayeva Munisa Xudoyberdi qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Unda jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ta'lim va tarbiya uyg'unligi, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash hamda ma'naviy yuksalish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, ma'naviyat, ma'rifat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik jamiyati, inson kapitali.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль и значение духовно-просветительских реформ в Стратегии развития Нового Узбекистана. Рассматриваются вопросы повышения духовного уровня общества, развития национальных и общечеловеческих ценностей, воспитания молодого поколения в духе патриотизма, гуманизма и высоких нравственных качеств. Также раскрывается значение духовно-просветительских реформ в формировании гражданского общества, развитии человеческого капитала и обеспечении устойчивого развития страны. В статье обосновывается, что единство образования и воспитания, сохранение историко-культурного наследия и духовное совершенствование являются важными факторами развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Стратегия развития, духовно-просветительские реформы, духовность, просвещение, национальные ценности, общечеловеческие ценности, образование и воспитание, воспитание молодежи, гражданское общество, человеческий капитал.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of spiritual and educational reforms in the Development Strategy of New Uzbekistan. It highlights the importance of improving the spiritual life of society, developing national and universal values, and educating the younger generation in the spirit of patriotism, humanity, and high moral qualities. The article also reveals the importance of spiritual and educational reforms in the formation of civil society, development of human capital, and ensuring sustainable progress of the country. The unity



Date: 13th August-2026

of education and upbringing, preservation of historical and cultural heritage, and spiritual growth are considered important factors in the development of New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, Development Strategy, spiritual and educational reforms, spirituality, enlightenment, national values, universal values, education and upbringing, youth education, civil society, human capital.



Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu jarayon "Yangi O'zbekiston" g'oyasi asosida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiya qilish, inson qadrini ulug'lash hamda xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Har qanday davlat taraqqiyoti faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki jamiyat a'zolarining ma'naviy saviyasi, bilim darajasi, fuqarolik mas'uliyati va tarixiy xotirasi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviyat inson va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar, madaniy merosi va axloqiy mezonlarini o'zida mujassam etadi. Jamiyatning ma'naviy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning taraqqiyot imkoniyatlari ham shunchalik keng bo'ladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida davlat siyosatining asosiy maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur maqsadlarga erishishda iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda, negaki jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy boyliklar bilan emas, balki insonlarning tafakkuri, bilim darajasi, ma'naviy dunyosi va ijtimoiy faolligi bilan ham belgilanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur yo'nalishdagi islohotlar jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, fuqarolarning tafakkurini yuksaltirish va mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini takomillashtirishdir, ta'lim nafaqat bilim beruvchi tizim, balki insonning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlar va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim omildir. Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda sifat va samaradorlikni oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rnini alohida ahamiyatga ega. O'z tarixini, ajdodlar merosini, ona tilini, urf-odat va an'analarni yaxshi bilgan yoshlar jamiyat rivojiga faol hissa qo'sha oladi. Shu sababli ta'lim jarayonida nafaqat zamonaviy fanlarni o'rgatish, balki yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularda vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi

Date: 13th August-2026



fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biridir va bugungi globallashuv davrida axborot oqimining keskin ortishi jamiyat oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Turli mafkuraviy tahdidlar, zararli axborotlar va ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri yoshlarning ongiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda jamiyatda mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Bunga erishishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va madaniyat tashkilotlarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviy immunitetga ega bo‘lgan shaxs turli yot g‘oyalarga qarshi mustaqil fikr yurita oladi, milliy manfaatlarni anglaydi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmunini zamon talablari asosida takomillashtirish, yoshlarni kitobxonlikka, ilm-fanga va ijodiy faoliyatga jalb etish muhim vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakatlardan biridir. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy, ma’naviy va madaniy boyliklar bugungi avlod uchun bebaho meros hisoblanadi. Tarixiy obidalarni asrash, buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Chunki o‘z tarixini bilgan xalqgina o‘z kelajagini ishonch bilan qura oladi. Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, ma’naviy yetuk, bilimli va faol fuqarolarni shakllantirishga bog‘liqdir. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda zamonaviy taraqqiyot talablariga javob beradigan avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Yangi O‘zbekistonning kelajagi ilmiy, ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli avlod qo‘lidadir. Shu sababli ham ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni izchil davom ettirish mamlakat taraqqiyotining muhim kafolatlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
5. Vohidov M., Eshmuhamedov R. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.